

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

3-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

X.M.Matqulov	
Nominative field of the concept "Wrestling" in English and Uzbek.....	372
D.M.Uktamovna	
“Mehrobdan chayon” va “Tanazzul” romanlarida tarixiy haqiqat va badiiy to‘qima uyg‘unligi ...	377
M.B.Siddiqov	
Urush nogironlarini ishga joylashtirishda tibbiy mehnat ekspert komissiyalarning roli.....	381
S.S.Abdullayev, D.M.Obidova	
Yoshlarni ijtimoiy-pedagogik qo‘llab-quvvatlash tizimi	387
R.I.Madaliyev	
Artpedagogika vositasida (teatr sa‘nati orqali) talaba yoshlarning harbiy vatanparvarlik tarbiyasini rivojlantirish omillari va istiqbollari	391
D.Z.Xudaykulova	
Bolalarning mustaqil badiiy faoliyatlariga rahbarlik qilish metodlari.....	395
Sh.A.Dosbayeva	
Mantiqiy fikrlash mashg‘ulotlarining didaktik ta‘minotini takomillashtirish.....	402
D.A.Xomidova	
Maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida bolalarning dizayn faoliyatini rivojlantirish.....	408
B.S.Sharipova	
Bo‘lajak biologiya o‘qituvchilarini o‘quvchilarda bioetik bilimlarni shakllantirishga tayyorlashning ijtimoiy-pedagogik zarurati.....	412
T.S.Axmedova	
Maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida “Ilk qadam” davlat dasturidan foydalanish	416
N.M.Aliyev	
Gipotetik-deduktiv metod orqali bo‘lajak pedagoglarda analitik tafakkurni rivojlantirishning pedagogik modeli	420
A.E.Normatov	
Neft va neft mahsulotlari bilan ifloslangan oqava suvlarini suv o‘simliklari yordamida tozalash	425
I.O.Umarov	
Kompetensiyaviy yondashuv asosida harbiy ta‘lim talabalarida o‘quv-jangovar sifatlarini rivojlantirish metodikasi	428
X.A.Madaminov	
Musobaqa faoliyati sharoitlarida kurashchilarning texnik-taktik imkoniyatlarini yuzaga chiqarish ishonchligi muammosi.....	433
B.Q.Qurbonova, M.Esonmirzayeva	
Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarni tarbiya fani asosida milliy kasibga yo‘naltrishning usul va metodlari.....	437
S.M.Boboraximov	
Kichik sinf o‘quvchilarining jismoniy tarbiyasida klasterli tabaqalashtirilgan yondashuvdan foydalanish zarurati.....	441
N.A.Akbarova	
Farg‘ona viloyati musiqa maktablarining respublika va xalqaro tanlovlardagi ishtiroki va natijalari	445
A.A.To‘raxanov, A.A.Ergashev	
Alohida ta‘lim ehtiyojiga ega o‘quvchilar muhitida autizm sindromli bolalar bilan ishlashning klaster mexanizmlari	450
M.M.Abdurahmonova, M.Suyumova	
Umumta‘lim muassasalarida ijtimoiy ish amaliyotini amalga oshirish (Rossiya Federatsiyasi misolida).....	457



UO'K: 37.02:37.018.56

**MANTIQUIY FIKRLASH MASHG'ULOTLARINING DIDAKTIK TA'MINOTINI
TAKOMILLASHTIRISH****СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ДИДАКТИЧЕСКОГО ОБЕСПЕЧЕНИЯ ЗАНЯТИЙ НА
ЛОГИЧЕСКОЕ МЫШЛЕНИЕ****IMPROVING DIDACTICAL SUPPORT FOR LOGICAL THINKING CLASSES****Dosbayeva Shaxnoza Abdurahimovna** 

Namangan davlat universiteti, Maktabgacha ta'lim metodikasi kafedrasida o'qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida mashg'ulotlarning didaktik ta'minotini takomillashtirish, mantiqiy fikrlashga o'rgatish zaruriyati to'g'risida fikrlar bayon etilgan.

Аннотация

В данной статье высказываются мнения о необходимости совершенствования дидактического обеспечения занятий в дошкольных образовательных организациях, обучения логическому мышлению.

Abstract

This article expresses opinions on the need to improve didactic support for classes in preschool educational organizations and teaching logical thinking.

Kalit so'zlar: *Tafakkur, mantiqiy fikrlash, intellekt, erkinlik, sensor rivojlanish, faoliyat, ta'lim-tarbiya jarayoni, tasavvur, aqliy munosabat, sezgi organlari, his-tuyg'u, mulohaza, tushuncha, aqliy hodisa.*

Ключевые слова: *Мышление, логическое мышление, интеллект, свобода, сенсорное развитие, деятельность, учебный процесс, воображение, психический настрой, органы чувств, чувство, отражение, понимание, психическое явление.*

Key words: *Thinking, logical thinking, intelligence, freedom, sensory development, activity, educational process, imagination, mental attitude, sense organs, feeling, reflection, understanding, mental phenomenon.*

KIRISH

Mamlakatimizda inson, uning har tomonlama kamol topishi va manfaatlarini ro'yobga chiqarish shart-sharoitlarini yaratish, ta'lim sifati va samaradorligini yuqori bosqichga olib chiqish yo'lidagi istiqbolli islohotlar natijasi uzluksiz ta'limning ilk bo'g'ini hisoblangan maktabgacha ta'lim o'quv-tarbiya jarayonida bolalarning intellektual va mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish, rivojlantirish g'oyasini keng tatbiq etish imkoniyatlarini oshirmoqda. Shuningdek, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tashkil etilayotgan mantiqiy fikrlash mashg'ulotlarida bolalarni mantiqiy fikrlashga o'rgatish texnologiyalarini tarkibini kengaytirish zarurati yuzaga kelmoqda.

Bugungi davrda dunyo va respublikamiz pedagog-olimlari tomonidan ta'limga qaratilgan e'tibor, eng avvalo, maktabgacha ta'lim tizimidan boshlanishi va kelajak avlodga zamon talablaridan kelib chiqib ta'lim-tarbiya berish, globallashuv sharoitida bolalar faoliyatini samarali tashkil etishga qaratilgan izlanishlar salmog'i ortib bormoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan 2019-yil 8-mayda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4312-sonli qarorida "maktabgacha yoshdagi bolalarni intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy jihatdan har tomonlama rivojlantirish uchun sharoitlarni yaratish maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil qilishning mavjud tartibini qayta ko'rib chiqish hamda maktabgacha ta'lim xizmatlarini ko'rsatishning zamonaviy usullarini joriy etish"[1] bo'yicha keng qamrovli vazifalarni amalga oshirish alohida belgilab qo'yildi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

"Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standarti"[2], "Ilk va maktabgacha yoshdagi

ILMIY AXBOROT

bolalarning rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari"[6] va "Ilk qadam"[4] Davlat dasturining ishlab chiqilishi maktabgacha ta'lim-tarbiyani samarali amalga oshirish uchun keng imkoniyatlar yaratdi. Zamonaviy maktabgacha ta'limni ham shaklan, ham mazmunan yangilashga qaratilgan bu kabi islohotlar bola tarbiyasi, uning sifatli ta'lim olishga tayyorgarligiga zamon talablaridan kelib chiqqan holda yondashuvni talab etadi.

Shu ma'noda, bugungi kunda zamonaviy maktabgacha ta'lim tashkiloti(MTT)ning maqsad va vazifalari quyidagilardan iborat:

- bolaning shaxsiy ehtiyojlarini hisobga olgan holda ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yilgan davlat talablari asosida hamda MTT davlat o'quv dasturiga muvofiq uning har tomonlama va barkamol rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish;
- maktabgacha yoshdagi bolalarning ta'lim va tarbiya jarayonini tashkil etish va amalga oshirish;
- bolalarning ilk rivojlanishi masalalarida oila va mahalliy jamoatchilik o'rtasida o'zaro hamkorlikni tashkil etish va amalga oshirish[6].

Albatta, ta'kidlash joizki, mamlakat kelajagi yosh avlodga bugungi kunda berilayotgan e'tibor va ularga ko'rsatilayotgan ta'limiy-tarbiyaviy ahamiyatga bog'liq bo'lib, shu ma'noda "Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standarti"da maktabgacha ta'limning namunaviy o'quv rejasini, ya'ni maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'tkaziladigan mashg'ulotlarning nomi, eng kam hajmi va ularning yoshi bo'yicha taqsimoti alohida belgilab berilgan[6].

Maktabgacha ta'limning namunaviy o'quv rejasida 4 dan 5 yoshgacha (o'rta maktabgacha yosh), 5 dan 6 yoshgacha (katta maktabgacha yosh) va 6 dan 7 yoshgacha (maktabga tayyorlov yoshi) bo'lgan guruhlarda o'tkaziladigan mashg'ulotlar orasida mantiqiy fikrlash mashg'ulotlari alohida ahamiyatga ega. Bolaning ushbu mashg'ulotlar orqali tasavvur doirasi o'sadi, atrofdagi olam va voqealar yuzasidan keng fikrlashga o'rgatiladi, mantiqiy fikr yuritish qobiliyati shakllanadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalik – bu inson hayotidagi juda qisqa davrni tashkil etadi, ya'ni yetti yil. Bu davrda rivojlanish har qachongidan ham tez sodir bo'ladi. Ushbu davrda bolaning faoliyat muhiti kengayib borada – faqat ona bilan muloqot qilishdan boshlab, u tengdoshlari va kattalar bilan ham muloqotga kirisha boshlaydi. Muloqot jarayonida muayyan ko'nikmalar, qobiliyatlar va shaxsiy fazilatlar (qat'iyatlilik, tashkilotchilik, xushmuomalalik, tashabbuskorlik) rivojlanib boradi. Bola o'z "men"ini, faolligini anglay boshlaydi, o'zini obyektiv baholay boshlaydi. Shuningdek, fikrlashning vizual shakllari, aqliy operatsiyalar shakllanadi. Barcha faoliyatlarda rivojlanadigan mantiq elementlari yuzaga keladi. Keyinchalik esa mantiq bola hayotining barcha bosqichlarida u voyaga yetgunga qadar muhim ahamiyat kasb etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda muammoga doir me'yoriy-huquqiy hujjatlar, pedagogik-psixologik va metodik adabiyotlarni o'rganish, tizimli-struktur tahlil, kuzatish, suhbat, maxsus pedagogik-psixologik metodikalar, tajriba-sinov, matematik-statistik usullardan foydalanilgan.

TAHLILLAR VA NATIJALAR

Bolaning 3 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan davri eng muhim hisoblanib, bu vaqt oralig'ida aynan, hozirgi innovatsion jamiyat uchun kerakli faoliyat turlari: troq-muhit to'g'risida keng darajada bilimlarni o'zlashtirish, atrofida sodir bo'layotgan jarayonlar xususida mantiqiy fikr yuritish kabi sifatleri rivojlanadi

Tadqiqotimiz doirasida, avvalo, "fikrlash", "mantiqiy fikrlash" tushunchalarining mazmun-mohiyatini turli yo'nalishlarda tahlil etish va maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda mantiqiy fikrlashning ahamiyati, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida mantiqiy fikrlash mashg'ulotlarini zamonaviy yondashuvlar asosida tashkil etish borasida bahs yuritish hamda o'z xulosalarimizni bayon etish maqsadga muvofiqdir.

Fikrlash inson faoliyatining eng yuqori shakllaridan biri va inson fikrlash yordamida yuksak bilimga ega bo'ladi, shuning uchun uni bolalikdan rivojlantirish juda muhimdir. Ko'p holatlarda bolalar 4 yoshgacha bo'lgan davrda o'z fikrlarini mantiqiy shakllantirishga qodir bo'ladi. Biroq, hamma bolalar ham bunday qobiliyatlarga ega emas.

Psixolog-olimlarning ta'kidlashicha, fikrlash, ya'ni tafakkur – odam miyasida sodir bo'ladigan jarayon. Sezgi organlari o'zlashtirish qilgan o'rinlarda odam va olamning xususiyatlari tafakkur orqali o'rganiladi. Tafakkur aqliy faoliyatning, ongli xatti-harakatlarning majmui. U tevarak-atrof, voqealar

hamda ijtimoiy muhitni bilish quroli, inson faoliyatini to'g'ri va samarali amalga oshirishning asosiy sharti hisoblanadi. Kishi fikrlash jarayonida o'zi ko'rgan, idrok qilgan, sezgan, tasavvur etgan narsa va hodisalarning to'g'riligi, aniqligi, haqiqiyliigi hamda ularning borliqqa munosabatini aniqlaydi[7].

L.Vigotskiy ta'biriga ko'ra, fikrlash jarayoni bolaning ota-onasi bilan muloqotidan boshlanadi. Mustaqil fikrlash esa bu suhbatlarni bola "yutib", o'zicha "hazm qila" boshlaganidan so'ng shakllanadi". Ushbu mulohazadan ma'lumki, fikrlash bevosita o'z yo'naltiruvchi kuchi, maqsadi, usullariga ega bo'lgandagina mustaqil faoliyatga aylanadi.

Fransuz faylasufi Dekart: "Men fikrlayapman, demak men mavjudman"[8],- degan g'oyani ilgari surgan. Bu fikr inson hayotida tafakkurni odamning borligi belgisi sifatida yetakchi o'ringa chiqaradi. Uning fikricha, hech narsa insonning mavjudligini fikrlash jarayonichalik asoslab berolmaydi. Demak, aytish joizki, mustaqil ravishda muhokama qilish, tahlil etish, ijodiy-mantiqiy fikrlash asosiy insoniy xususiyat sifatida ajratib olingan. Fikrlash inson mavjudligi va ruhan sog'lomligining asosiy belgilaridan sanaladi. Uning mustaqilligi tushunchalar, mantiqiy birikmalar, mavjud til vositalaridan oqilona foydalanish bilan tavsiflanadi.

Har bir hodisa yuzasidan o'z fikr va qarashiga ega bo'lgan, o'z xulosalarini chiqarib, ularni asoslay bilgan shaxs hech qachon o'zgalarga tobe bo'lmaydi. Muhim masalalar hal etilayotgan vaziyatlarda beparvolik, loqaydlik qilmaydi, taqdirini o'zgalarga hal qilib yuborishiga yo'l qo'ymaydi. Fikr kishisi biror faoliyatni boshlashdan oldin o'ylab ko'radi, tahlil qiladi.

"Fikrlash faolligi, - deb yozadi respublikamiz pedagog-olimi I.Ibragimova, - bolaning hodisalarga tezkorlik bilan munosabat bildirishida namoyon bo'ladigan, muloqotga kirishish, o'z-o'zini anglash, o'zi va atrofdagilarga baho bera olish, o'z faoliyatini tahlil qila olish ko'nikmalariga egaligidir"[9]. Darhaqiqat, bolaning fikrlash faolligi atrofdagi insonlarga bo'lgan muomala-munosabatida yaqqol namoyon bo'ladi.

Bola yosh bosqichlariga ko'ra turlicha qiziqishga ega bo'ladi, o'ziga xos fikrlaydi va his qiladi. Turli yoshda turlicha faoliyat ko'rsatadi, borliqqa munosabati ham har xil bo'ladi. Shu sababli har bir yosh davrida bolani fikrlashga o'rgatish jarayonida turlicha harakatlar amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir.

Sharq mutafakkir olimlaridan Abu Nasr Farobiyning fikricha, ta'lim-tarbiya jarayonining har bosqichida bolalarning bilimlarni o'zlashtirishi o'ziga xos tarzda fikrlash, tasavvur qilish va his etish orqali amalga oshadi. Inson tug'ilganidan fikrlash quvvatiga ega bo'ladi va u bolaning o'sishi bilan rivojlanib boradi. Uning mulohazalariga ko'ra, inson aqliga sig'adigan tushunchalarning kishi ongida saqlanib qolishi bilishning natijasi sanaladi. Farobiy: "Bolada katta imkoniyatlarga ega ko'ngil bor. U his-tuyg'uga, tafakkur orqali anglash xususiyatiga ega. Hissiyot va tafakkur bilan jismlar tushuniladi"[10], - degan xulosalarni bayon etadi.

Ibn Sinoning qarashlariga ko'ra, bolaning bilimi asosida mantiqiy fikrlash, shaxsiy kuzatish va tajriba yotadi. Alloma ta'lim-tarbiyada erkinlik bo'lishiga e'tibor qaratgan. Erkinlik o'z-o'zidan tafakkur mustaqilligini ta'minlaydi, fikr kishisini tarbiyalaydi, shaxsning ma'naviy kamolotiga sabab bo'ladi. Ibn Sino "ustoz shogirdining ayri xususiyatlarini inobatga olishi, ularni o'zining bilimdonligi, shaxsi bilan qiziqtirishi, ta'limning turli metodlaridan foydalanishi kerak"[11], - deb hisoblagan. Bilimlarni bolalar tuyg'ulari orqali hissiy o'zlashtirishi uchun o'rgatuvchining har bir so'zi imo-ishora va yuz harakatlari bilan mos bo'lishi kerakligini ta'kidlagan. Fikrlash xususida so'z yuritib, uning mantiqqa asoslanishi lozimligini, mantiq fikrlashning quroli ekanligini ta'kidlab, borliqni anglash mantiqqa asoslanishi kerakligini alohida e'tirof etgan.

Faylasuf olim Aristotel mantiqni "ma'lum bilimlardan noma'lum bilimlarni aniqlovchi", "chin fikrni xato fikrdan ajratuvchi" fan sifatida ta'riflaydi. "Mantiqning vazifasi chin fikrni, haqiqatni aniqlashdir"[12], - deb ta'riflaydi.

"Mantiq" ilmi barcha diniy va dunyoviy ilmlar bilan aloqador va bog'liqdir. Bu ilm sohasi aqlni charxlaydi, nutqni va nutqiy tafakkurni o'stiradi. Shu bois ham qadimdan madrasalarda mantiq darsi o'qitib kelgan. Islom dunyosida ba'zan mantiq ilmiga, uning boshqa ilmlar va to'g'ri fikr yuritish uchun bir vosita va o'lchov ekanligini nazarda tutgan holda "ilmi mezon" nomi berilgan.

Abu Abdulloh al-Xorazmiy o'zining nazariy ilmlari tartibida har qanday tafakkur, ilmiy bilimning zaruriy ibtidosi sifatida aks etgan mantiq masalalarini ham o'rganadi. Abu Abdulloh al-Xorazmiy mantiqning roli va masalalari haqida fikr yuritib, mantiq na nazariy, na amaliy ilmlarga kirmasdan, alohida, qandaydir uchinchi qismni tashkil etadi, degan nuqtai nazarni ilgari

ILMIY AXBOROT

suradiki[13], bu Ibn Sinoning mantiq masalasiga oid yondashuviga mos tushadi. Ta'kidlash joizki, fikrlash va mantiqiy fikrlash inson ma'naviy kamolotining asosini tashkil etadi. Shu sababdan tafakkurga, fikr munosabatiga ehtiyoj har qachon, har davr uchun zarurat sanaladi. Shunday ekan, maktabgacha yoshdagi bolaning ongi va tafakkurida keskin burilish yasash, mamlakatimiz taraqqiyotini yanada yuksaltirish yo'lida, eng avvalo, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tashkil etilayotgan mashg'ulotlar sifatini ko'tarish, mantiqiy fikrlash mashg'ulotlarini yangicha yo'nalishda olib borilish masalalariga e'tibor qaratish lozim.

Mantiqiy fikrlash – inson tomonidan ko'rib, eshitib, bilib, his qilib va anglanib turgan borliq, voqelik yoki taassurotlarning boshqalar uchun ham tushunarli tarzda tafakkur etilishini anglatuvchi tushunchadir[14].

Raghavning fikricha, mantiqiy fikrlash – bu kundalik faoliyatga asosiy mantiqiy xulosalar qoidalarini tushunish va kiritish qobiliyati. Bu bosqichma-bosqich fikrlashni va xulosalar chiqarish uchun bilganingizdan foydalanishni o'z ichiga oladi[15]. Mantiqiy fikrlash qobiliyati universal insoniy xususiyatdir. Mantiqiy fikrlash atributlar, munosabatlar va ketma-ketlikni tushunishni talab qiladi va nafaqat norasmiy o'rganish, balki kundalik faoliyatda ham muhim ahamiyatga ega. Oddiy qilib aytganda, bolalar mantiqni qo'llash orqali rivojlanib boradilar.

Olib borilgan tadqiqotlarning juda ko'plarida mantiqiy fikrlashning pedagogik ma'nosi "bilim" tushuncha orqali aniqlangan. Chunki: bilim har doim mantiqiy shaklda (mulohaza, tushuncha, hukm, xulosa) ifodalanadi; bilim rivojlanish mazmunining bir qismi bo'lib, ma'lum jarayonda mantiqqa asoslanib o'zlashtiriladi[16]. Asli bilim ham mantiqiy, ham grammatik shaklda ifodalanadi. Demak, bilimning mantiqiy shakli – bu mulohaza, tushuncha, hukm, xulosa. Grammatik shakl – bu gap, gaplar to'plami sifatida tushunish mumkin.

Mulohaza - biror masala yuzasidan bildirilgan yoki o'ylab qo'yilgan fikr[16].

Tushuncha – bu oqilona bilish shakli, tafakkur elementi va fikr mavjudligining elementar shakli sifatida faqat shaxsga xos bo'lgan, so'z bilan belgilanadigan aqliy hodisa.

Hukm – tushunchalar va hodisalar o'rtasidagi bog'lanishlarni o'rnatishga imkon beradigan fikrlash turi bo'lib, baholash asosida hukm yotadi.

Xulosa – bir qator hukmlarni taqqoslash sifatidagi fikrlashning o'ziga xos turidir. Aqliy harakat sifatida xulosa chiqarish boshlanadi va yangi hukm yoki o'sha holatdagi hukmni qabul qilish bilan tugaydi[17].

Mantiqiy fikrlash shakllari quyidagi funktsiyalarni bajaradi:

- a) bilimlarni ifodalash;
- b) bilimlarning tuzilishi;
- d) bilimlarni o'zgartirish[18].

Ta'kidlash joizki, bolalarda mantiqiy fikrlashni shakllantirish asosida uning bilim olishi va intellektual jihatdan o'sishini ta'minlar ekanmiz. Bolalar bilan olib boriladigan ta'lim-tarbiya jarayonida birinchi navbatda ularda mantiqiy potentsialni o'stirish, taqdim etilayotgan axborotda intellektning ishlashi uchun zarur bo'lgan katta hajmli shakllarni oqilona o'zlashtirishga imkon beradi.

Ingliz olimlarining xulosalariga ko'ra, mantiqiy fikrlash – bu shaxsning hayotiy yechimga kelishiga imkon beradigan tarzda fikrlashdan foydalanishni o'z ichiga olgan mahorat. Mantiqiy fikrlash - bu ularga vaziyatga obyektiv qarashga va yechim topishga yordam beradigan qobiliyatdir. Mantiqiy fikrlash umumiy nuqtai nazarni, bosqichma-bosqich fikrlashni va vazifani hal qilish uchun allaqachon bilgan narsangizni ishlatishni o'z ichiga oladi. Mantiqiy fikrlashni rivojlantirish bolaning shakllanishining eng muhim tarkibiy qismlaridan biridir[19].

Bizning fikrimizcha, mantiqiy fikrlash – bu insonga nafaqat olingan ma'lumotni o'zlashtirish va o'zgartirishga, balki uni maksimal darajada qo'llashga hamda eng manfaatli foyda olishga yordam beradigan jarayondir.

Shu sababdan ham maktabgacha yoshdagi bolani mantiqiy fikrlashga o'rgatish juda muhim ahamiyatga ega bo'lib, u muvaffaqiyatli tarzda maktabga tayyorlash uchun zarur, u har qanday vaziyatda oqilona va mulohaza yuritish, qiyin vaziyatdan chiqish yo'lini topish, jamiyatda va tabiatda o'zini to'g'ri tutishga o'rgatish demakdir.

Mantiqiy fikrlash - bu mumkin bo'lgan va zaruriy xulosalarni farqlash qobiliyati. Bu matematik va ilmiy fikrlashning muhim tarkibiy qismi bo'lib, ijtimoiy va siyosiy hayotning

murakkabliklarida harakat qilish uchun ham muhimdir. Bu mantiqiy fikrlashning qanday rivojlanishini tushunishni nazariy va ta'lim kontekstlari uchun juda muhim qiladi[20].

Mashhur psixologlar va metodistlarning tajribasi (Halperin, Talyzina, A.V.Beloshistaya) 3-4 yoshli bolada allaqachon yoshga bog'liq xususiyatlarni hisobga olgan holda mantiqiy fikrlashni shakllantirish mumkinligini ko'rsatadi[21]. Shuningdek, 6-7 yoshga kelib yuqori darajada shakllanishi mumkin. Maktabgacha tarbiya davri oddiy mantiqiy harakatlarni o'rganish uchun eng sezgir va psixologik jihatdan qulay davrdir.

Bolalarda mantiqiy fikrlashning elementar usullarini shakllantirish boshlang'ich maktabda bolalarni muvaffaqiyatli o'qitishning shartidir. Mantiqdan foydalangan holda ongda ma'lumotni faol ravishda qayta ishlash qobiliyati bolaga faqat xotiraga tayanib, o'quv kursini tushunadiganlardan farqli o'laroq, o'quv materialini chuqurroq bilish va tushunish imkonini beradi. Rivojlangan mantiqiy fikrlash tabiiy holda mavjud deb o'ylamaslik lozim. Mantiqiy fikrlash har bir yoshda har xil bo'lib, ular bolaning ulg'ayishi va uning tafakkuri murakkablashishi bilan kengayib boradi[22].

Mantiqiy fikrlashni rivojlantirish - bu aqliy faoliyat bilimlarini, usullarini uzatish va o'zlashtirishning maqsadli hamda tashkiliy jarayoni. Uning asosiy xususiyati nafaqat maktabda fanlarni muvaffaqiyatli o'zlashtirishga tayyorgarlik ko'rish, balki bolalarni har tomonlama rivojlantirishdan iborat.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni mantiqiy fikrlashga o'rgatish bola bilan kechayotgan barcha holatlarda va ayniqsa, maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi mantiqiy fikrlash mashg'ulotlari mobaynida yanada natijaviy holatda amalga oshadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi mantiqiy fikrlash mashg'ulotlari kichik bolani tarbiyalashning eng muhim jarayonlaridan biridir. Mantiqiy fikrlash mashg'ulotlari orqali bolaning ongini rivojlantirish, yangi bilimlarni o'rganishni osonlashtirish, aqliy qobiliyatlarni shakllantirishga erishish mumkin va bu jarayon turli o'yinlar tarzida amalga oshirilishi yaxshi natija ko'rsatadi. O'yin - maktabgacha yoshdagi bolaning yetakchi faoliyati ekanligi haqidagi pozitsiyasini inobatga olgan holda, mashg'ulotlarni ham turli o'yinlar asosida olib borish bolalarni zerikarli va qiziqarsiz holatdan, zavqli va amaliy harakatlarni bajarishga undovchi o'quv-tarbiya jarayonlarini kafolatlaydi. Bola mantiqiy fikrlash mashg'ulotlarida tashkil etilgan o'yin maqsadiga erishish jarayonida bevosita ta'lim faoliyatida ham, kundalik hayotda ham alohida aqliy faoliyatni namoyon qiladi.

Bolalar mantiqiy fikrlash mashg'ulotlaridagi amaliy harakatlarni o'zlashtirish natijasida jismlarning xossalari va munosabatlari, sonlar, arifmetik amallar, miqdorlar va ularning xarakterli belgilari, fazo-vaqt munosabatlari, turli xil geometrik shakllarni o'rganadilar. Shu tariqa mantiqiy fikrlash faoliyati shakllanib hamda rivojlanib boradi. Mantiqiy fikrlashning rivojlanish darajasi esa ko'p jihatdan bolaning ta'lim faoliyatining ayrim turlarini o'zlashtirishdagi muvaffaqiyatini belgilaydi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni mantiqiy fikrlashga o'rgatishning samarali usullarini izlash va amaliyotga tatbiq etish pedagogika sohasida o'z dolzarbligiga ega bo'lgan masalalaridan biridir. Shu sababdan maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarning o'z imkoniyatlari va qobiliyatlariga mos keluvchi mashg'ulotlarni tashkil etish orqali ularni turli mavzular yuzasidan mantiqiy fikrlashga qiziqishini uyg'otish tarbiyachi-pedagog tomonidan olib boriladigan muhim vazifalardan biridir. Fundamental tadqiqotlar va eksperimentlar, muammoli vaziyatlar, qiziqarli o'yinlar maktabgacha yoshdagi bolalarning mantiqiy fikrlashini oshirishga turtki bo'ladi.

XULOSA

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida mashg'ulotlarning didaktik ta'minoti tarbiyachilar tomonidan xilma-xil tarzda boyitilib, bolalarning qiziqishlarini doimiy ravishda orttirilib, buning natijasida bolalarning ta'limiy faoliyat davomida erkin muhitni yaratilishi zarur.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 8 майдаги “Ўзбекистон Республикаси мактабгacha таълим тизимини 2030 йилгacha ривожлантириш Концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги ПҚ-4312- сон Қарорига 1-илова.
2. O'zbekiston Respublikasining “Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida” gi Qonuni. 2019-yil 16-dekabr
3. O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida”gi Qonuni, 23.09.2020 yildagi PQ-637-son
4. “Ik qadam” davlat o'quv dasturi. -T.: BMT bolalar jamg'armasi (YUNISEF), 2022
5. Y.I. Fausek. “Montessori bolalar bog'chasi”. – Toshkent.: Yangi asr avlodi. 2008. 24-28s
6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 22.12.2020-yildagi “Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning

ILMIY AXBOROT

davlat standartini tasdiqlash to'g'risida"gi 802-sonli qarori / Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 23.12.2020-y., 09/20/802/1658-son; Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 05.04.2022-y., 09/22/153/0266-son.

7. Богоявлинский Д. Н. Менчинская Н. А. Психология усвоения знаний в школе. – М.: 1959. Богоявлинский Д. Н. Развитие самостоятельности мышления школьников как основа активных методов обучения. Сб. "Пути повышения качества усвоения знаний в начальных классах". – М.: АПН РСФСР, 1962. Психология мышления. | Под ред. Матюшкина А. М. – М.: «Прогресс», 1965. Тихомиров О. К. Психология мышления. – Москва: изд-во МГУ, 1984;

8. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 3-jild. – T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" davlat ilmiy nashriyoti, 2002. – 242 b.

9. To'ychiyeva I.I. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tayyorlov guruhi bolalarining fikrlash faolligini rivojlantirish. Ped. fan. bo'yicha fal. dok. diss. PhD. – T. 2020. – B 15.

10. Xayrullayev M. Farobiy ruhiy protsesslar va ta'lim-tarbiya to'g'risida. – T.: "O'qituvchi", 1967. – B. 79.

11. Рахимов С. Педагогические идеи Абу Али ибн Сины. Автореф. дисс... канд. пед. наук. –Т., 1964.

12. <https://hozir.org/falsafa-21-mavzulari-mundarija.html?page=3>

13. <https://xs.uz/uzkr/post/ilmlarning-raisi-yokhud-mantiq-nima-uchun-kerak>

14. <https://staff.tiame.uz/storage/users/409/articles/RSWSVBqVFpNbCNV7ZI0O7fEIYpfpX4ynCnbLndMW.pdf>

15. <https://www.parentcircle.com/how-to-develop-logical-reasoning-skills-for-preschoolers/article>

16. <https://uz.wiktionary.org/wiki/mulohaza>

17. Психолого-педагогический словарь для учителей и руководителей общеобразовательных учреждений. – Ростов н/Д.: Феникс, 1998. – 544 с. <https://www.vgafk.ru/upload/medialibrary/5e5/myshlenie-2004.pdf>

18. Ягудина Т.А. Логические формы мышления // Вестник ОГУ №5/май 2006. – С. 47-51.

19. <https://www.kinderpedia.co/logical-thinking-kids.html>

20. Henry Markovits, Pier-Luc de Chantal. Critical Thinking and Reasoning "Theory, Development, Instruction, and Assessment" // Chapter 5 The Semantic Retrieval Model and Divergent Thinking as Critical to Understanding Logical Reasoning in Children. 28 Sep. 2020. – P. 81-98.

21. O'rinova F.O'. The development of logical thinking of primary school students in mathematics // European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. Vol. 8 No. 2, 2020 Part II ISSN 2056-5852. – P. 235-239.

<https://www.idpublications.org/wp-content/uploads/2020/03/Full-Paper-THE-DEVELOPMENT-OF-LOGICAL-THINKING-OF-PRIMARY-SCHOOL-STUDENTS-IN-MATHEMATICS.pdf>

22. <https://infourok.ru/pamyatka-dlya-roditelej-o-neobhodimosti-razvitiya-logicheskogo-myshleniya-u-doshkolnikov-5090124.html>

23. V.G.Dimitriyeva. "Metodika rannego razvitiya Marii Montessori. "Ot 6 mesyasev do 6 let". – Moskva.: "RuLit". 2010.

24. Y.Kosareva, S.Devis, "Montessorri dlya malishey", - Moskva.: "Izdatelstvo Eksmo". 2019.